

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

GEOGRAFIYA FANIDAN OLIMPIADALARINI TASHKIL QILISH MASALALARI

Karakulov Nurbol Maidanovich

dotsent v/b., Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasи,

nkarakaulov@mail.ru

Usmonova Gulgora Eshmatovna

Toshkent shahar Yashnobod tumani 61-maktab geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya fanidan xalqaro olimpiada tashkil qilish tarixi, maqsad, vazifalari va uning o'ziga xos xususiyatlari o'r ganilgan. Shuningdek maqolada O'zbekistonda geografiya fanidan xalqaro olimpiada o'tkazish bo'yicha muammolar o'r ganilgan hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro olimpiada, geografiya, Xalqaro geografik ittifoq, iqlim o'zgarishi, amaliy ishlari, multimedia test, dala ishlari.

Annotation. This article studies the history of the organization of the International Olympiad in Geography, its goals, objectives and features. The article also discusses the problems of holding an international Olympiad in geography in Uzbekistan and makes recommendations.

Key words: International Olympiad, geography, International Geographical Union, climate change, practical work, multimedia test, field work.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari tarkibiga kirib, bilimli va iqtidorli o'quvchilarni saralab olishda katta xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, sifatli bilim olishga va ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida O'zbekistonimiz dovrug'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida 2019-yil 3-mayda PQ-4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tuzilmasida fan olimpiadalari bo'yicha iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash departamenti tashkil etildi. Departament bugungi kunda fan olimpiadalarini tashkil etishda faol ish olib bormoqda.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Bizga ma'lumki fan olimpiadalari o'quvchilarning iqtidorini va bilimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek olimpiadalar quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- a) o'quvchi yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatini namoyon qilish va rivojlantirish;
- b) fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqr o'rganishga qiziqishlarini oshirish;
- c) kelajakda o'quvchilarni o'zlari qiziqqan kasbini to'g'ri tanlashida ko'maklashish.

Umuman olganda O'zbekistonda vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan Nizomga ko'ra, mакtab o'quvchilari o'rtasida umumta'lim fanlari bo'yicha quyidagi olimpiadalar tashkil etiladi:

- asosiy olimpiada;
- qo'shimcha respublika olimpiadalari;
- onlayn olimpiada;
- nufuzli xalqaro olimpiadalar;
- mintaqaviy xalqaro olimpiadalar.

Jumladan, asosiy olimpiadalar tegishli fanlardan 4 bosqichda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

1-bosqich — maktab, akademik litsey va kasb-hunar maktablar miqyosida sentabr oyida;

2-bosqich — tuman (shahar) miqyosida oktabr oyida;

3-bosqich — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida noyabr oyida;

4-bosqich — respublika miqyosida barcha fanlardan mart-may oylarida.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning bilimini oshirishda respublika olimpiadalaridan tashqari xalqaro olimpiadalarning o'rni ham kattadir. Mamlakatimizda geografiya fanidan xalqaro olimpiadada qatnashish imkoniyati 2021 yilda paydo bo'ldi. 2021-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining 562-qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda boshqa fanlar qatori, geografiya fani bo'yicha bir qator yangiliklar bor ekanligi, ko'p sonli geograflarni xursand qildi. Geografiya fani bo'yicha 10-11-sinflar o'rtasida fan olimpiadasining tashkil etilishi, eng asosiysi, Xalqaro olimpiadalar ro'yxatiga geografiya fanining kiritilishi, geografiya faniga qiziquvchi yoshlari va ularning ustozlari uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Geografiya fani bo'yicha xalqaro olimpiadasiga o'quvchilarni saralash 2024 yilda boshlandi. 2024 yil geografiya fanidan xalqaro olimpiadaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

va Toshkent shahri bosqichi 27 fevral kuni tashkil etildi. Bu bosqichda 100 dan ortiq iqtidorli o'quvchilar qatnashib, o'z hududida dastlabki uchta o'rinni egallagan 42 ta g'oliblar respublika bosqichida qatnashish uchun yo'llanma oldi. Respublika bosqichida 1,2,3,4 o'rirlarni egallagan to'rtda o'quvchi xalqaro geografiya fan olimpiadasida qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Geografiya (iGeo) fanidan O'zbekiston terma jamoasi 2024 yilda birinchi marta qatnashadi. Barcha fanlardan nazorat turlari, shakllari, baholash mezonlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. IGEO— har yili o'tkaziladigan xalqaro geografiya fan olimpiadasi bo'lib, 16 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan milliy geografiya olimpiadalarining eng yaxshi ishtirokchilari o'rtasida o'tkaziladi. Olimpiadada qatnashish uchun o'quvchilar o'z mamlakatlarida saralash bosqichida qatnashib, yuqori o'rirlarni olish talab etiladi. Uning formati geografiya bo'yicha o'tkaziladigan Respublika olimpiadalaridan farq qiladi. Xalqaro Olimpiada uch qismidan iborat: yozma test, multimedya testi va kuzatishni talab qiluvchi, kartografik tasvir va geografik tahlilga asoslangan dalada bajariladigan amaliy ish. Ularning har biri testlar va topshiriqlar mazmunidan kelib chiqib ball asosida baholanadi. Multimediya testiga umumiyy ballning 20%, javobi yoziladigan testga 40% va amaliy ishga 40% beriladi. O'quvchilarga barcha test va topshiriqlar ingliz tilida beriladi va ular faqat ingliz tilida javob yozishlari kerak.

Xalqaro olimpiadada o'quv yurtlarida ingliz tilida o'qimagan o'quvchilar uchun qo'shimcha vaqt beriladi. Masalan yozma test qismida ingliz tilida o'qigan o'quvchilarga 150 minut berilsa, ingliz tilida o'qimagan o'quvchilar uchun 180 minut ajratiladi. IGEO birinchi navbatda ishtirokchilarning geografiya haqidagi tushunchalarini, bilimlarini shuningdek, bu bilimlarni amalda tabiiy-geografik va iqtisodiy maqsadlarda qo'llash qobiliyatini sinovdan o'tkazadi.

Xalqaro olimpiadaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarda tabiiy-geografik va ekologik tadqiqotlarga faol qiziqishni rag'batlantirish;
- yoshlarda iqtisodiy-geografik va ijtimoiy-geografik tadqiqotlarga faol qiziqishni rag'batlantirish;
- yoshlar o'rtasida geografik bilim, ko'nikma va qiziqishlarning sifatiga e'tibor qaratish orqali geografiyaning o'rta maktablarning o'quv predmeti sifatidagi ahamiyatiga ijobiy hissa qo'shish;
- turli mamlakatlar yoshlari o'rtasida ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yish va bunda xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stona aloqalarga hissa qo'shish.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Xalqaro olimpiadalarda qatnashgan o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlab, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib, albatta katta tajriba to'playdi. Shuningdek davlatimiz tomonidan ular e'tirof etilib, munosib taqdirlanadilar.

Masalan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydag'i "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzlusiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq nufuzli xalqaro olimpiadalarda oltin medalni qo'lga kiritgan o'quvchilarga BHMning 500 baravari (165 mln so'm), ustoziga 450 baravari (148,5 mln so'm); kumush medal uchun — o'quvchi BHMning 300 baravar miqdori (99 mln so'm), ustoziga 250 baravar (82,5 mln so'm), bronza medal uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari (66 mln so'm), ustoziga 150 baravar (49,5 mln so'm) pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Bundan tashqari, Xalqaro olimpiada g'oliblari OTMlarga imtiyoz bilan grant asosida o'qishga qabul qilinib, keyinchalik ta'lim muassasalarida o'qituvchi bo'lib faoliyat yuritadigan taqdirda lavozim maoshiga 150 foiz har oylik ustama oladi. Ma'lumki, O'zbekiston yoshlar mamlakati. Davlatimiz siyosati ham har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganini barchamiz guvohimiz. Bugungi kunda ta'lim sohasida yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlardan samarali foydalanib, o'quvchi yoshlar o'z imkoniyatlarini va bilimlarini xalqaro olimpiadalarda sinab ko'rishlari mumkin bo'ladi.

Xalqaro geografiya olimpiadasi Xalqaro geografiya ittifoqi (IGU) homiyligida, olimpiada ishchi guruhi orqali o'tkaziladi.

1994-yilda Pragada bo'lib o'tgan Xalqaro geografik Ittifoq Kongressida Polsha va Niderlandiya geograflari 15 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun Xalqaro geografiya tanlovi (IGEO) yoki olimpiada g'oyasini ilgari surdilar. Birinchi IGEO 1996-yilda Niderlandiyaning Gaaga shahrida beshta ishtirokchi davlat ishtirokida o'tkazilgan.

2012 yilgacha olimpiadalar har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinardi. O'tgan yillarda bir qancha hududiy olimpiadalar o'tkazildi. Jumladan, Markaziy Yevropa mintaqaviy geografiya olimpiadalari va 2007, 2009 va 2011 yillarda o'tkazilgan Osiyo Tinch okeani mintaqaviy geografiya olimpiadalari.

XGI 2012-yilgi Kyoln Kongressi va 2016-yilgi Pekindagi Kongress oralig'ida har yili mintaqaviy konferentsiyalar o'tkazishga qaror qildi. Har yili o'tkazilgan olimpiadalar Kioto (2013), Krakov (2014), Tver (2015), Pekin (2016), Belgrad (2017), Kvebek (2018) va Gonkongda (2019) bo'lib o'tdi. 2020 yilda Covid-19 pandemiyasi tufayli olimpiada o'tkazilmadi. Shuningdek pandemiya davrida 2021 (Istanbul) va 2022 (Parij) yillarda olimpiada onlayn

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

tarzda o'tkazildi. 2023-yil avgust oyida Indoneziyaning Bandung shahrida yana IGEO o'quvchilar ishtirokida bo'lib o'tdi. Ishtirokchi davlatlar barcha besh qit'adan tashrif buyurdi.

Xalqaro geografiya olimpiadasi bugungi kungacha 19 marta tashkil qilindi.

Navbatdagi XX Xalqaro geografiya olimpiadasi Irlandiyada 2024-yilning 19-24-avgust kunlari Xalqaro geografik Ittifoqning Maxsus olimpiadalar guruhi shafeligida bo'lib o'tadi.

Olimpiada tadbirlari Maynooth shahri, Maynooth universiteti va Dublindagi Trinity College kollejida bo'lib o'tadi.

IGEO da to'rt nafar talabidan iborat mamlakatlar terma jamoalari va ularning ilmiy rahbarlari qatnashishlari mumkin.

Xalqaro geografiya olimpiadasi uch qismdan iborat: yozma test, multimediya testi va kuzatishni talab qiluvchi, kartografik tasvir va geografik tahlilga asoslangan dalada bajariladigan amaliy ish. Dastur shuningdek, jamoalar tomonidan poster taqdimotlari, madaniy almashinuvlar va o'quvchilar bilan tanishish va mezbon shaharni o'rganish uchun vaqtini o'z ichiga oladi.

Yozma javob testi va Multimedia testidagi savollar asosan quyidagi mavzular asosida tanlanadi:

1. Iqlim va iqlim o'zgarishi
2. Xavf va xavfni boshqarish
3. Resurslar va resurslarni boshqarish
4. Ekologik geografiya va barqaror rivojlanish
5. Relyef shakllari, landshaftlar va yerdan foydalanish
6. Qishloq xo'jaligi geografiyasi va oziq-ovqat muammolari
7. Aholi va aholi o'zgarishi
8. Iqtisodiy geografiya va globallashuv
9. Rivojlanish geografiyasi va fazoviy tengsizlik
10. Shaharlar geografiyasi, shaharni qayta tiklash va shaharsozlik
11. Turizm va turizmni boshqarish
12. Madaniy geografiya va mintaqaviy o'ziga xosliklar

O'quvchilar uchun zarur ko'nikmalar:

- xarita bilan ishslash ko'nikmalar
- tekshiruv, izlash malakalari
- grafika qobiliyatları (tasvirlar, fotosuratlar, statistika, grafiklarni o'qish, tahlil qilish va sharplash)

Multimedia testlarida rasm, karta, grafik kabi tasvirli savollardan tashqari, video va audio topshiriqlar ham beriladi.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Amaliy ish mashqlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish va xaritalash
2. Qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish, shu jumladan, dala ishlari sohasida fazoviy muammolarni tahlil qilish
3. Fazoviy reja yoki xaritani o'z ichiga olgan taklifga olib keladigan muammoni hal qilish mashqlari

Xaritalash mashqlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish;
2. Kuzatilgan hodisalarini nomlash;
3. Xaritadagi hodisalarining o'rnnini aniqlash;
4. Tegishli grafik belgilardan foydalanish;
5. Xarita legendasidagi hodisalarini tasvirlash, mashtab va orientirlashdan foydalanish.

Xulosa o'rnidida shuni takidlash kerakki, o'quvchi-yoshlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyatini aniqlash, ularni rag'batlantirish, o'quvchilarda o'zları tanlagan fanlar va ixtisosliklarni chuqur o'rganishga qiziqishlarini oshirish, kelajakda kasblarni to'g'ri tanlashiga ko'maklashish maqsadida fanlar bo'yicha olimpiadalar tashkil etiladi. Ular esa o'z navbatida kelajakda malakali kadrlar safini ko'paytirib, mamlakatimiz rivojiga va taraqqiyotiga o'z xissalarini qo'shishlariga ishonamiz.

Adabiyotlar:

1. Таможня Е. А. Методика обучения географии : учебник и практикум для вузов / Е. А. Таможня, М. С. Смирнова, И. В. Душина ; под общей редакцией Е. А. Таможней. — Москва : Издательство Юрайт, 2024.
2. Qurbonniyozov R., Geografiya o'qitish metodikasi, Xorazm, 2001
3. Mo'minov O. A. Geografiya ta'limi metodikasi. T. «O'qituvchi» 1986
4. Botirovich, J. A., Maidanovich, K. N., & Izzatullo, A. O. (2022). The designing of the educational process on the base of innovative technologies. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 364-369.
5. Karakulov, N. M., Amanbayeva, Z. A., Sultanova, N. B., & Xidirov, M. S. (2019). Development of tourism in Uzbekistan. *European science review*, 1(1-2), 13-15.
6. Matnazarov, A., Sultanova, N., Janzakov, A., & Karakulov, N. (2022). Morphological Types of Uzbekistan Mountain Glaciers and their Present Condition. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2512-2518.

Internet manbalar:

1. <http://www.geoolympiad.org/fass/geoolympiad/2024/index.shtml>
2. <https://geografiyaurduolimp.wordpress.com/olimpiada-nizomi/>
3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/Xalqaro-geografiya-olimpiadasi.htm>
4. <https://daryn.kz/>
5. <https://geography.olympiad.ch/en/>